



UO'K: 633.31:631.559

QASHQARBEDA VA BOSHOQLI EKINLARDAN TAYYORLANGAN KO'K MASSA TARKIBIDAGI ISHQORIYLIK MIQDORINING TURLI EKISH MUDDAT VA ME'YORLARIDAGI TAHLILI

Beknayev Ulug'bek Alisher o'g'li 

q.x.f.f.d (PhD)

e-mail: ulugbekbeknayev@icloud.com

Mamarahimov Bunyod Ikromovich 

q.x.f.d., professor

e-mail: bunyodmamarahimov@mail.ru

Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Qashqarbeda va Suli, Javdar, Tririkale ekinlarini aralash holda hamda Qashqarbedani nazorat sifatida olib borilgan tadqiqotlarda turli muddat va me'yorlarda ko'k massa tarkibigi ishqoriylik miqdorining laboratoriya tahlillari bo'yicha shuni xulosa qilish mumkinligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: kul, azot, silos, o'simlik, tuproq, sut, yog', qashqarbeda, ozuqa, go'sht, ekish muddati, ko'k massa.

Abstract. Studies conducted on mixed crops of buckwheat and oats, rye, and triticale, with buckwheat as a control, have shown that laboratory analyses of the alkalinity content of the green mass at different times and rates can be used to draw conclusions.

Keywords: nitrogen, silage, plant, soil, milk, fat, sweet clover, feed, meat, planting date, green mass ash.

Аннотация. Исследования, проведенные на смешанных посевах гречихи, овса, ржи и Tririkale, с гречихой в качестве контрольного образца, показали, что лабораторный анализ содержания щелочности в зеленой массе в разное время и при разных скоростях посева может быть использован для формулирования выводов.

Ключевые слова: азот, силос, растение, почва, молоко, жир, донник, корм, мясо, срок посева, зола зеленой массы.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

KIRISH

B.Allashov va boshqalarning ma'lumotlariga ko'ra ozuqaning biologik va yeyiluvchanligini yaxshilashda boshqoli va dukkakli ekinlarni aralashma holda ekish hamda undan ozuqa tayyorlash samarali hisoblanadi. Boshqoli ekinlardan sof holda tayyorlangan ozuqalar chorva mollari tomonidan hazmlanishi 60% bo'lsa qashqarbeda kabi dukkakli ekinlar bilan aralashma holda tayyorlangan ozuqalarning hazmlanishi 90% gacha bo'lgani kuzatilgan. Qashqarbedadan aralashma holda tayyorlangan ozuqalar uning tarkibidagi kumarin moddasi hisobidan saqlash muddati boshqa ozuqalarga nisbatan uzoqroq bo'lishi aniqlangan [1, 2].

N.P.Lukashevich va boshqalarning ma'lumotlarida takidlanishicha chorva mollari uchun qashqarbedadan sifatli ozuqa tayyorlashda o'rish muddatlariga ahamiyat berish kerak bo'ladi. Birinchi o'rimda 20–25 sm. balandlikda, ikkinchi va uchunchi o'rimlarda 5–10 sm balandlikda o'rish tavsiya etiladi. Qashqarbedani birinchi yilida gullash fazasida o'rish mumkun ikkinchi yilida esa shonalash davrida o'rish kerak bo'ladi bunga sabab poyalari dag'allashib ozuqa sifatiga salbiy tasir ko'rsatadi [3, 4].

L.A.Asinskaya, L.M.Axiyarova va boshqalar o'z tadqitotlarida qashqarbedani makkajo'xori bilan aralashma holda ekilganda ulardan chorva mollari uchun to'yimli moddalar bo'yicha balanslashgan sifatli ozuqa imkoniyati yaratilishi, hosildorligi bo'yicha esa sof holda ekilganga nisbatan 1,2–1,4 barobar ko'proq hosil olish mumkunligi va har bir gektardan yig'iladigan oqsil miqdori 35–42% gacha ko'p bo'lishini isbotlashgan. Ubu aralashma holda ekib yetishtirilgan ozuqalardan silos, sinaj va pichan kabi ozuqalar tayyorlanib ular sog'in sigirlarda, yosh buqalarda va qo'ylarda sinashgan hamda ijobiy natijalarga erishishgan [5, 6].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tajribalar turli ekish muddatlari va me'yorlari bo'yicha olib borilgan bo'lib, ushbu tadqiqotlar V.R.Vilyams nomidagi Butunittifoq yem-xashak ekinlari ilmiy-tadqiqot instituti olimlari A.M.Konstantinov va boshqalar uslubida, matematik statistik tahlillar B.A.Dospexov uslubida hamda MS Excel dasturi asosida amalga oshirilgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Qashqarbeda va boshqoli ekinlardan tayyorlangan ko'k massa tarkibidagi ishqoriylik asosan kul tarkibi va mineral tuzlar hisobiga hayvon ozuqasining sifati va fiziologik ta'sirida juda muhim rol o'ynaydi. O'simliklardagi ishqoriylik asosan kaliy (K), kalsiy (Ca), magniy (Mg) miqdori, kul tarkibi hamda organik kislotalar va ularning nisbatiga bog'liqdir. Ishqoriylik yuqori bo'lsa ozuqa organizmda kislotani neytrallashga moyil bo'ladi. Qashqarbeda ishqoriy hisoblanib, kalsiy va magniyga juda boy, kul miqdori yuqori hamda odatda ishqoriy reaksiyali ozuqa hisoblanadi. Qoramol, qo'y, echkilar uchun asosiy vazifalardan birini bajaradi, ya'ni qorindagi kislotalikni pasaytiradi hamda sut ishlab chiqarishga ijobiy ta'sir qiladi. Boshqoli





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

ekinlarda kaliy nisbatan bor, lekin kalsiy kamroq, yengil kislotali yo'nalishda oson hazm bo'ladi.

Ishqoriylikning aralash ozuqa uchun ahamiyati shundagi qashqarbeda + boshqoli ekinlar kombinatsiyasi juda muhim, chunki balans ta'minlanadi. Qashqarbeda → ishqoriy (Ca, Mg yuqori), boshqoli ekinlar → energiya va struktura bo'lib, natija rumen barqarorlashadi, kislota-ishqor muvozanati saqlanadi hamda ketoz, atsidoz kabi kasalliklar xavfi kamayadi. Hayvon organizmi uchun ishqoriylik rumen kislotaligini oldini oladi, mikroflora faolligini optimal saqlaydi. Shuningdek, sut va o'sish samaradorligi, Ca va Mg sut tarkibini yaxshilaydi va ovqatlanish samaradorligi oshadi.

Qashqarbeda ishqoriy ozuqa bo'lib, boshqoli ekinlar esa energiya manbai hisoblanadi. Ular birga qo'llanilganda ishqor-kislota muvozanati yaxshilanadi, hazm tizimi barqarorlashadi va hayvon mahsuldorligi oshadi. Tadqiqotlarda laboratoriya sharoitida qashqarbeda va boshqoli ekinlardan tayyorlangan ko'k massa tarkibigi ishqoriylik miqdorini turli ekish muddat va me'yorlarda quritib olinganda tahlil qilindi. Ekish muddati 15 sentyabrda qashqarbeda va boshqoli don ekinlarini aralash holda ekilganda ko'k massa tarkibigi ishqoriylik miqdori qashqarbeda 14 kg+suli 55 kg, qashqarbeda 14 kg+javdar 60 kg va qashqarbeda 14 kg+tritikale 70 kg variantlarda 4,3-4,6 % oralig'ini va nazoratda 4,1 % ni tashkil etdi. Ekish muddati 30 sentyabrda amalga oshirilganda esa ko'k massa tarkibigi ishqoriylik miqdori 4,5-4,6 % oralig'ini, nazoratda 4,2 % hamda 15 oktyabrda ekilganda 4,4-4,5 % oralig'ini va nazoratda 4,2 % ni tashkil etdi (jadvalga qarang).

Ko'k massa tarkibigi ishqoriylik miqdori ekish muddatlari 15-, 30-sentabr va 15-oktabrda amalga oshirilganda qashqarbeda va boshqoli don ekinlarini aralash holda 2022-2024 yillarda qashqarbeda 12 kg+suli 65 kg, qashqarbeda 12 kg+javdar 70 kg va qashqarbeda 12 kg+tritikale 80 kg variantlarda 4,3-4,8 % oralig'ida va nazoratda 4,1-4,4 % oralig'ini tashkil etdi. Yuqoridagi ekish muddat va me'rlaridan qashqarbeda 12 kg+tritikale 80 kg me'yorida aralashgan holda ekilganda boshqa variantlarga nisbatan ko'k massa tarkibigi ishqoriylik nisbatan yuqori bo'lganligi aniqlandi.

Ishqoriylik miqdori bo'yicha qashqarbeda va boshqoli don ekinlarini aralash holda 15,30 sentyabr va 15 oktyabrda ekilganda qashqarbeda 10 kg+suli 75 kg, qashqarbeda 10 kg+javdar 80 kg va qashqarbeda 10 kg+tritikale 90 kg variantlarda 15 sentyabrda ekilganda 4,4 % dan (15 oktyabr qashqarbeda 10 kg+suli 75 kg), 4,7 % gacha (15 sentyabr qashqarbeda 10 kg+javdar 80 kg va 30 sentyabr qashqarbeda 10 kg+tritikale 90 kg) oralig'ini va nazoratda 4,3-4,5 % ni tashkil etdi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

jadval

**Qashqarbeda va boshqoli ekinlardan tayyorlangan ko'k massa tarkibigi
ishqoriylik miqdorini turli ekish muddat va me'yorlaridagi tahlili (mahsulot
T= 60 0C haroratda dastlabki
qurutish jarayonida quritib olingan 2022-2024 y)**

Ekish muddatlari	Ekish me'yorlari	Ishqoriylik (%)	Ekish me'yorlari	Ishqo-	Ekish muddatlari	Ekish me'yorlari
15 sentabr	Qashqarbeda (14 kr)+ Suli (55 kr)	4,4±0,19	Qashqarbeda (12 kr)+ Suli (65 kr)	4,3±0,22	Qashqarbeda (10 kr)+ Suli (75 kr)	4,5±0,34
	Qashqarbeda (14 kr)+ Javdar (60 kr)	4,3±0,17	Qashqarbeda (12 kr)+ Javdar (70 kr)	4,6±0,31	Qashqarbeda (10 kr)+ Javdar (80 kr)	4,7±0,36
	Qashqarbeda (14 kr)+ Tririkale (70 kr)	4,6±0,26	Qashqarbeda (12 kr)+ Tririkale (80 kr)	4,7±0,34	Qashqarbeda (10 kr)+ Tririkale (90 kr)	4,6±0,31
Nazorat	Qashqarbeda (18 kr)	4,1±0,24	Qashqarbeda (18 kr)	4,3±0,28	Qashqarbeda (18 kr)	4,3±0,29
30 sentabr	Qashqarbeda (14 kr)+ Suli (55 kr)	4,5±0,28	Qashqarbeda (12 kr)+ Suli (65 kr)	4,5±0,29	Qashqarbeda (10 kr)+ Suli (75 kr)	4,6±0,35
	Qashqarbeda (14 kr)+ Javdar (60 kr)	4,4±0,31	Qashqarbeda (12 kr)+ Javdar (70 kr)	4,4±0,30	Qashqarbeda (10 kr)+ Javdar (80 kr)	4,5±0,33
	Qashqarbeda (14 kr)+ Tririkale (70 kr)	4,6±0,29	Qashqarbeda (12 kr)+ Tririkale (80 kr)	4,8±0,35	Qashqarbeda (10 kr)+ Tririkale (90 kr)	4,7±0,36
Nazorat	Qashqarbeda (18 kr)	4,2±0,23	Qashqarbeda (18 kr)	4,4±0,31	Qashqarbeda (18 kr)	4,5±0,32
15 oktyabr	Qashqarbeda (14 kr)+ Suli (55 kr)	4,5±0,27	Qashqarbeda (12 kr)+ Suli (65 kr)	4,3±0,27	Qashqarbeda (10 kr)+ Suli (75 kr)	4,4±0,29
	Qashqarbeda (14 kr)+ Javdar (60 kr)	4,4±0,25	Qashqarbeda (12 kr)+ Javdar (70 kr)	4,5±0,32	Qashqarbeda (10 kr)+ Javdar (80 kr)	4,6±0,31
	Qashqarbeda (14 kr)+ Tririkale (70 kr)	4,5±0,26	Qashqarbeda (12 kr)+ Tririkale (80 kr)	4,6±0,34	Qashqarbeda (10 kr)+ Tririkale (90 kr)	4,6±0,33
Nazorat	Qashqarbeda (18 kr)	4,2±0,23	Qashqarbeda (18 kr)	4,1±0,26	Qashqarbeda (18 kr)	4,3±0,32
ЭКХФ 05		0,18		0,19		0,16



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

XULOSA

Tadqiqotlarda 2022-2024-yillarda qashqarbeda va suli, javdar, tritikale ekinlarini aralash holda hamda qashqarbedani nazorat sifatida turli muddat va me'yorlarda ko'k massa tarkibigi ishqoriylik miqdorining laboratoriya tahlillari bo'yicha shuni xulosa qilish mumkinki, 15 sentyabrda ekilganda qashqarbeda 12 kg+tritikale 80 kg va qashqarbeda 10 kg+javdar 80 kg variantlarda hamda 30 sentyabrda ekilganda qashqarbeda 12 kg+tritikale 80 kg va qashqarbeda 10 kg+tritikale 90 kg variantda 4,7-4,8 % ni tashkil bo'lib, boshqa variantlarga nisbatan 0,5 % gacha va nazoratga nisbatan 0,7 % gacha yuqori bo'lganligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Allashov B.D., Jamolov S.G'. Ozuqabop ekinlarning issiqqa va suv tanqisligiga bardoshli nav, namunalarini tanlash. Konferensiya Cho'l chorvachiligi, ekologiya va yaylov agrofitorosenozlarini yaratishning dolzarb muammolari. Konferensiya materiallari. Qishloq xo'jaligi 2023 yil. B. 230-233.
2. Allashov B.D., Jamolov S.G', Sug'oriladigan maydonlarda ozuqabop ekinlarni yetishtirish., Toshkent – 2021. 12-b.
3. Shlapunov, V.N. Barqaror yashil konveyer hayvonlarning yuqori mahsuldorligining kalitidir / V.N. Shlapunov, T.N. Lukashevich // Belarus qishloq xo'jaligi. – 2009. – 6-son.
4. Xudoyberdiyev N.X., Allashov B.D., Beknaye U.A. Bada nav-namunalarini boshpoya balandligi bo'yicha o'rganish va tanlash Konferensiya Cho'l chorvachiligi, ekologiya va yaylov agrofitorosenozlarini yaratishning dolzarb muammolari. Konferensiya materiallari. 2022. – B. 254-257.
5. Асинская Л.А. Совершенствование технологии производства донника белого однолетнего на кормовые сели и семена в условиях юга Приморского края: автореф. Дис. канд. с-х наук: 06.01.09 // ФГОУ ВПО «Приморская гос. с-х академия». – Барнаул: 2008, – 17-с.
6. Ахиярова Л.М., Исмагилов Р.Р., Ахияров Б.Г., Качества зерна сортов озимой ржи в процессе хранения Овощеводство и садоводство. Аграрный вестник Урала №3 (82), 2011. – 63-с.

